



Respublika
Ta'lim Markazi

edurim_uz


TAKBIYA

Baxt va muvaffaqiyat sirlari

Tarbiya biz uchun yo hayot –
yo mamot, yo najot – yo halokat,
yo saodat – yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy

1



RMKJ



ISBN 978-9943-6113-5-1

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6113-5-1.

9 789943 611351

TARBIYA 1

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinf o'quvchilari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan



G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT - 2020

UO'K 17(075.2)

KBK 87.7ya71

T 23

**Ismatova Nargiza, Ro'ziyeva Dilnoz, Islomov Zohidjon,
Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir,
Mahmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Madallyeva Sevara,
Shermuhammedova Saodat, Akkulova Saodat, Mo'minova Laylo,
Xolmuhammedova Nilufar**

Mas'ul muharrirlar:

Z. Islomov

– filologiya fanlari doktori, professor.

D. Kenjayev

– tarix fanlari nomzodi.

Taqrlizchilar:

M. Quronov

– Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari o'rinnbosari;

R. Jabborov

– Davlat tilini rivojlantirish masalalari bo'yicha "O'zbekkino" MA Bosh direktori maslahatchisi;

Z. Jabborova

– Respublika ta'lim markazi "Ijtimoiy fanlar" bo'limi metodisti;

F. Karimova

– Toshkent shahar Chilonzor tumani 281-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

L. Gaynuttinova

– Respublika tashxis markazi direktori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tegishli
xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.

N. Ismatova va b.

Tarbiya: 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 b.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.*

UO'K 17(075.2)
KBK 87.7ya71

© N. Ismatova va boshqalar.

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

ISBN 978-9943-6113-5-1



Assalomu alaykum, qadrlı bolajonlar!

Mana Siz dunyo imoratlarining eng go'zali bo'lgan maktab ostonasiga qadam tashladingiz. Qadamingiz qutlug' bo'lsin!

Bu yerda mehribon ustozlardan ilm o'rganasiz, tengdoshlaringiz bilan do'stlashasiz, o'z oldingizga ezgu maqsad qo'yasiz va unga intilib yashaysiz.

Maktab Sizga bilim beradigan, orzu-maqsadlar ringizga erishishga ko'maklashadigan muqaddas maskandir.

Oldinda sizni ilmlar olami kutmoqda. Sizning mustaqil fikr yuritib, jonajon O'zbekistonimizning aqli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo'lib voyaga yetishingizga ishonamiz!

Omad yor bo'lsin!

Mualliflar jamoasi





I bob. Men O'zbekiston farzandiman



YO'L KO'RSATKICHLARI



ODOB DURDONALARI

BIRGALIKDA O'QIYMIZ




OILA DAVRASIDA

IJODIY FAOLIYAT



AQLNI CHARXLASH



1-MAVZU: VATAN ISHONCHI



Men birinchi sinfga borganimda da-dam menga G'afur Gulomning she'rini o'qib bergandilar:

Sen bu kun sinfda shod yurak bilan
Sinov navbatini kutib turasan.

A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!



Ijodiy faoliyat



1. Bugun qanday bayram?
2. Sizni yana kimlar birinchi sinfga qadam qo'y-ganingiz bilan tabrikladi?
3. Prezidentimiz Sizga qanday tilak bildirdilar?
4. Maktabga nima uchun kelganingizni bilasizmi?



I bob. Men O'zbekiston farzandiman



2-MAVZU: SALOMLASHISH ODOI





“Assalomu alaykum!”

“Gar saloming bo‘lma ganda,
ikki yamlab bir yutardim!”



Odamlarga salomatlik va tinchlik nima uchun kerak, deb o‘ylaysiz?



Salomlashish insonlar orasida mehr-oqibat va do‘silik tuyg‘ularini paydo qiladi. Chunki salom berish orqali insonlar bir-birlariga salomatlik va tinchlik tilaydilar.



I bob. Men O'zbekiston farzandiman



Salomlashish qoidalari:

Bolalar ertalab
yuz-qo'llarini yuvib
bo'lgach, ota-onalariga
va o'zidan kattalarga
salom beradilar.



Xonaga kirgan odam
xonadagilarga salom
beradi.



Yurib ketayotgan
odam o'tirgan
odamga salom beradi.



Odobli bola doim
tabassum bilan:
“Assalomu alaykum”, –
deb salom beradi.

Oila davrasida



1. Rasmlarga nom qo'ying.
2. Kattalar yordamida ularning ketma-ketligini aniqlang va raqamlar bilan birlashtiring.
3. Birinchi qaysi rasmdan boshlar ekansiz?



1 2 3 4 5

I bob. Men O'zbekiston farzandiman




3-MAVZU: MENING ORZUYIM

Daftaringizga orzular zinasini chizing.
Zinaning har bir pog'onasiga nom bering.



Assalomu
alaykum!
Men
Olimjonman!



Oila davrasida hər bir pog'onani
egallash uchun nima qilishingiz kerak?"
haqida suhbatlashing.



Assalomu
alaykum!
Men
Donoxonman!





I bob. Men O'zbekiston farzandiman



4-5-MAVZU: BILIM OLİSH SİRLARI



Bolalar, muvaffaqiyat
va imkoniyatlar
eshigini qanday kalit
bilan ochishimiz
mumkin?

- darslarga o'z
vaqtida kelish;
- vazifalarni sifatli
bajarish;



- savol berishdan qo'rmaslik;
- ustozni diqqat bilan tinglash;
- darslarni takrorlash;



- do'stlar bilan hamkorlik qilish;



- o'ng qo'l qoidasiga rioya qilish.





I bob. Men O'zbekiston farzandiman





Donoxon, sen ustozlar
haqida she'r bilasanmi?



Haq yo'linda kim senga bir harf
o'qitmisht ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning
haqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiy





Oila davrasida



1. Buratinoning sarguzashtlarini ota-onangiz bilan birga tomosha qiling.
2. Sabr-bardosh va tirishqoqlik bilan bilim olishga intiladigan ertak qahramonlarini eslang.
3. Keyingi darsga o'zingiz sevgan ertak qahramonlari haqidagi kitoblarni olib keling.




I bob. Men O'zbekiston farzandiman




6-MAVZU: MAKTABIM – GULSHANIM

Bolalar, keling, maktabimiz
bo'ylab sayohat qilamiz.
Sinfxonalari yorug' va chiroyli.
Oshxonamiz ham bor.
Kutubxonamizda qiziqarli kitob-
lar ko'p.





Maktab sport zalida sog'lig'imizni mustahkamlaymiz.



Faollar zalida o'tkaziladigan tadbirlarda iqtidorimizni namoyon qilamiz.

Bilimli bo'lish eng fazilatli ish, chunki u baxt-saodat eshigining kalitidir.





I bob. Men O'zbekiston farzandiman



Bolalar, bizning maktabimiz
bilan tanishdingizmi?

Maktabimizda bizning bilim
olishimiz uchun barcha sharoitlar
yaratilgan.

Shuning uchun bizning
mакtabimиз ozoda va tartibli.



Siz-chi, maktabingizni
qanday saqlayapsiz?

Biz məktəbdə ^{Juyic}_{nal} lagi tartib-qoidalarga amal qilamız:



salomlashish;



xushmuomala bo'lish;



o'zaro hurmat;



ozodalikka riyva etish;



darsga tayyor holatda kelish;



məktəb multini asrash;



farroshlar mehnatini qadrlash;



xonadan chiqayotganlarga yo'l berish;



o'ng tomon qoidasiga amal qilish;



o'z-o'ziga xizmat qilish.





I bob. Men O'zbekiston farzandiman



Rasmlarni tomosha qiling. Tasvirlarda keltilgan joylardan foydalanishning o'ziga xos qoidalari bor.



Rasmlardagi joylardan qanday foydalanish kerakligini kattalardan so'rang.



1. Hojatxonaga chap oyog'ingiz bilan kiring, o'ng oyog'ingiz bilan chiqing.
2. Ishlatilgan qog'ozlarni maxsus idish-larga tashlang.
3. Qo'lingizni sovunlab yuving.
4. Hojatxonada gaplashmang.



I bob. Men O'zbekiston farzandiman

7-8-MAVZU: MENING SEVIMLI ERTAK QAHRAMONLARIM



Hozir siz bilan ertaklar
olamiga
sayohat qilamiz!



Bor ekan-da, yo'q ekan,
Och ekan-da, to'q ekan.
Bo'ri bakovul ekan,
Tulki yasovul ekan.
Qarg'a qaqimchi ekan,
Chumchuq chaqimchi ekan.
G'oz karnaychi ekan,
O'rdak surnaychi ekan.
Toshbaqa tarozibon ekan,
Qurbaqa undan qarzdor ekan.
Qirg'ovul qizil ekan,
Dumlari uzun ekan.
Tog'dan tog'ga qo'ngan ekan,
Oyoqlari singan ekan...





Qadim zamonda bir chol bo'lgan ekan...
Ertakning davomini rasmlarga qarab o'zingiz
ayting.





I bob. Men O'zbekiston farzandiman



Kuch – birlikda. Hamkorlik, birdamlik, yaxshilik, mardlik, jasurlik, bilimdonlik so'zlarini quyidagi rasmlarda berilgan qahramonlar orqali tasvirlab bering. Ushbu multfilm qahramonlarini taniysizmi?



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ikkala suratdagi multfilm qahramonlari og'ir vaziyatlardan qanday chiqadilar?
2. Yolg'onchilik, ochko'zlik qanday oqibatlariga olib kelishini ertaklarda o'qiganmisiz?



Bilimsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi.

9-10-MAVZU: HAR NARSANING O'Z O'LCHOVI BOR

Bolalar, bitta gulni
o'stirishga qancha vaqt
kerak bo'ladi?



Gullarni vaqtida
parvarish qilmasak,
ular nobud bo'lishi
mumkin.





I bob. Men O'zbekiston farzandiman

Kun tartibiga rioya qilasizmi?
Kun tartibi nima uchun kerak?
Sizning kun tartibingiz qanday?



Rasmlardagi vazifalarning ketma-ketligini
raqamlab chiqsangiz, kun tartibingizni bilib
olamiz.

TARBIYA, 1-SINF

Kattalar: "Kun tartibiga rioya qilsang, vaqtingni tejaysan", – deb aytadilar.



To‘g‘ri taqsimlanmagan vaqt uvol bo‘ladi. Chunki vaqtni orqaga qaytarib bo‘lmaydi.



I bob. Men O'zbekiston farzandiman



Vaqtimizni tejash uchun kun tartibiga rioya
qilish kerakligini bilib oldik.
Yana nimalarni tejash mumkin?

O'qituvchim: "Tabiiy boyliklar
behuda sarf qilinsa, uvol
bo'ladi", – deb aytadilar.



Baraka tejamkorlikdadir.

Bolalar, Orol dengizining avvalgi va hozirgi holatiga e'tibor bering! Qumlikda yotgan kemaga qarang! Suvni tejamaslik qanday oqibatlarga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rdingizmi?



Har qanday isrofgar – odamlarning dushmani. Har bir tejamkor – o'z Vatanini sevuvchi.



I bob. Men O'zbekiston farzandiman


11-12-MAVZU: MENING MAHALLAMDA YASHASH YAXSHI



Ijodiy faoliyat



Sizning mahallangizda-chi?
Bizning mahallada...





I bob. Men O'zbekiston farzandiman



Chiqindilarni maxsus idishlarga tashlang!



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar:

Ruxsat etilmagan joyga chiqindilar tashlasa, qanday oqibatlar yuz berishi mumkin?



Bilasizmi, ba'zida shunday holatlar ham yuz beradi!



Ijodiy faoliyat



1. Siz bunday ish qilmasangiz kerak?
2. Rasmga qarab voqeani izohlang.
3. Voqeanning oldini olish mumkin edimi?



I bob. Men O'zbekiston farzandiman



13-MAVZU: NOTANISH KISHI KIM?

Ertalab maktabga kelayotgan edim. Bir kishi qo'llimga yaltiroq qog'ozga o'rالgan qutichani tutqazdi. Uni maktab direktoriga olib borib berishimni iltimos qildi. "Yo'q, bu ishga aslo rozi bo'lma", – tanbeh berdilar opam...



Menga esa bir ayol mashinada birga sayr qilishni taklif qildi.



Sevara maktabdan erta qaytdi. Uyining oldida kutib turgan notanish ikki ayolni ko'rib hayron bo'ldi.

– Isming Sevarami, onangni ismi Mohigul-a? – o'zini yaqin olib so'radi ayollardan biri.

– Ha! – hayron bo'ldi Sevara.

– Bizni onang yubordi, pasportini olib berar ekansan, – dedi ikkinchi ayol...



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar:

Notanish kishilar shirinlik yoki shunga o'xshash narsalar berishsa, nima qilish kerak?

Notanish odamlarga uyi, oilasi haqida ma'lumot berish mumkinmi?



Ijodiy faoliyat



Hikoyani davom ettiring. Sevaraning o'rnidagi bo'lganingizda siz nima qilgan bo'lardingiz?



I bob. Men O'zbekiston farzandiman




1. Agar notanish odam sizni olib ketmoqchi bo'lса, bor kuchingiz bilan yordamga chaqiring. Barcha imkoniyatlar bilan qarshilik qiling.
2. Ko'chada qoldirib ketilgan buyumlarga duch kelsangiz, o'zingizdan kattalarga yoki ichki ishlар xodimlariga xabar bering.

QUYIDAGI RAQAMLARNI YODLAB OLING:





14-15-MAVZU: XAVFLI VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar:



Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini bilasizlarmi?



I bob. Men O'zbekiston farzandiman



XAVFLI VAZIYAT YUZ BERGANDA...

Xavfli vaziyatlarda yo'l ko'rsatkichlari orqali tartibli harakat qilish kerak.

Faqat o'ng tomondan yurish kerak. Bir-biringizga xalaqit bermang!

Zilzila vaqtida harakat qilish.



Kuchli shamol vaqtida ko'chaga chiqmang!



Sel kelganda yoki suv toshqini vaqtida yuqori
va xavfsiz joyga o'ting!

“Zukko o‘quvchi” o‘yini

O‘yinda bir nechta o‘quvchi ishtirok etishi mumkin:

Qur‘a tashlanadi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo ketma-ketlik aniqlanadi.

O‘yin qoidalari: toshlar o‘rtaga tashlanadi.



Toshlardagi raqamlarga qarab yuriladi.



Birinchi bo‘lib tojni qo‘lga kiritgan o‘quvchi g’olib hisoblanadi. Ikkinchi bo‘lib o‘yini boshlagan ikkinchi, uchinchi bo‘lib boshlagan uchinchi bo‘lib kelsa, o‘yin durang bo‘ladi.




Har bir bekatda o‘qituvchining savoliga javob berish kerak bo‘ladi.




Ko‘rsatkich bo‘ylab yurish yoki ortga qaytish kerak.







TARBIYA, 1-SINF





II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



16-MAVZU: SEHRLI SO'ZLAR

Men har kuni maktabga ketayotganimda dada-jonim bilan oyijonim mendan: "Sehrli so'zlarni unutmadingmi?" – deb so'rashadi.

Ana shu sehrli so'zlar yordamida mening hamma ishlarim unumli bo'ladi. Baholarim "a'lo", kundalik daftarimdan esa, "ota-onangga rahmat", degan ol-qishlar joy oladi.



Oila davrasida

1. Siz qanday sehrli so'zlarni bilasiz va ularni qayerda ishlatasiz?
2. Quyidagi so'zlarni rasmlar bilan bog'lang:
 A) assalomu alaykum; B) rahmat; D) iltimos;
 E) kechirasiz; F) uzr; G) mumkinmi; H) marhamat; I) labbay; J) yaxshi boring; K) oq yo'l;
 L) xafa bo'lmanq; M) sog'ayib keting.



Aqni charxlash uchun savol va topshiriqlar:



1. Oila a'zolaringiz bilan muloqotda qanday sehrli so'zlarni ishlatasiz?
2. Ularga qanday murojaat qilasiz?
3. Murojaat qilishda "jon" qo'shimchasini qo'shib ishlatib ko'ring va bunga odatlaning. Masalan: oyi+jon.



II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



17-MAVZU: QALB OYNASI



Maktabda yomon baho oldim. Uyimizning darvoza-si oldida o'tirgan bobojonim:

- Yomon baho oldingmi? – deb so'radilar yuzimga qarab.
- Qayerdan bildingiz? Kim aytdi? – hayron bo'ldim.
- Har bir insonning qalb ko'zi bo'ladi. Kayfiyatningni ko'zingda ko'rdim.



Ijodiy faoliyat

1. Siz ham insonning yuziga qarab uning galbini ko'ra olasizmi?
2. Rasmlarga qarab o'zingizga yaqin bo'lgan qiyoferini topishga harakat qiling.

18-19. MAVZU: TELEFONDAN DALANIS, SH QOIDALARI



aykum!
Assalomu alaikizmi? Me
Meni tanidin ko'p ma'sen Mobiljonman!
Sizga juda keling o'yuumotlarni bera ola-
man. Lekin meni iga tushnlarimga berilib, Bil-
masvoyning hol telefon qumang.

Qulog'iga telefondan illoqchinlarini taqib olgan
Bilmasvoy yo'lni kesib otmoqchi bo'ldi.
Orqasidan kelayotgan avtomobil tovushini e-
may qoldi. Haydovchi rulni qattiq burib yubordi.
may qoldi. Haydovchi rulni qattiq burib yubordi.
Avtomobil yo'lning chetidagi yoritgichga urildi.



❖ II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki ❖



Mendan foydalanishning qoidalari mavjud:

1. Qo'ng'iroqlarga "Assalomu alaykum, labbay", deb javob bering.
2. O'zingiz qo'ng'iroq qilganingizda, albatta, "Assalomu alaykum", deb gap boshlang. O'zingizni tanishtirishni unutmang.
3. Telefonda qisqa va aniq gapлаshing.
4. Past ovozda gapiring. Atrofdagilarga xalaqit bermang.
5. Dars vaqtida telefondan foydalanmang.
6. Ko'chada, ayniqsa, avtomobil yo'llaridan o'tayotganingizda telefon qulоqchinlarini taqmang.





Bizning oilamiz katta. Bobom 1876-yilda tug'ilganlar. Shundan beri insonlarga xizmat qilamiz.

Bizni yotoqxonaga, ayniqsa, yostiqning tagiga qo'yish mumkin emas. Bizzdan chiqadigan katta miqdordagi nur sog'lig'ingizga zarar yetkazadi.



II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



20-21-MAVZU: TASHQI KO'RINISH ODOBI

Vazira bayramona ko'yylakda, sochlarini yo-yib, har xil taqinchoqlar taqib sinfga kirib keldi. Ustozi va sinfdoshlari hayron bo'lishdi...



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Taqinchoqlarni qayerga borganda taqish kerak?
2. Sizning yoshingizda qanday taqinchoqlarni taqish mumkin?



Oila davrasida


Taqinchoqlar inson hayoti uchun xavfimi?
Nima uchun?

Hayvonot bog'iga aylangani bordik. Bitta qu-log'iga zirak taqib olgan bola e'tiborimni tortdi. Uning bo'yndida qalin zanjir ham bor ekan.

Men buvijonimga savol nazari bilan qaradim.

– Bu uning tarbiyasi, – javob berdilar buvijonim.

Bunday kiyinish odobi sizga ma'qulmi?



Doimo orasta kiyining va xushmuomala bo'ling. Haqiqiy go'zallik qalbda bo'ladi. Qalb esa insonning ichki madaniyati va odobini belgilaydi.

 II bab. Əsər xulq – inson ko'rki 

Oila davrasida

1. Qayerga qanday soch turmagida borish mumkin?
2. Maktabga ketayotganingizda sochingizni qanday turmaklaysiz, nima uchun?
3. 3-, 6-, 7-, 8-raqamli soch turmaklari bilan qayerlarga borishni taklif qilasiz?

22-23-MAVZU: YAXSHI VA YOMON ODATLAR



Oilamiz bilan dam olish uchun dalafovliga bordik. Yo'lda ketayotganimizda, avtomobilimizning oynasiga nimadir kelib tegdi. Yo'l chetiga to'xtab qaragan edik, oynaga tekkan narsa bizdan oldinda ketayotgan avtomobilning oynasidan otilgan bo'sh plastik idish ekan...



Aqini charxlash uchun savol va topshiriqlar:



1. Siz nima deb o'ylaysiz, oldindagi avtomobil yo'lovchilari to'g'ri ish qilganmi?
2. Yurib ketayotgan avtomobilning oynasidan turli narsalarni tashlash mumkinmi?
3. Chiqindilarni qayerga va qay tartibda tashlashni bilasizmi?



II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki

Qaysi idishga qaysi chiqindilarni solasiz?



- A) _____
B) _____
D) _____
E) _____
F) _____

24-MAVZU: SOY BO'YIDA



Yoz kunlarining birida soy bo'yiga bordik. Kattalar oyog'imizga poyabzal kiyib olishimizni aytishdi. Lekin biz yugurib yalangoyoq suvga tushdik.

Singlimning oyog'ini soy tubida



Suvni ich, chashmani bulg'ama!



Oila davrasida



1. Nima deb o'ylaysiz, soyga shisha siniqlari qayerdan tushgan?
2. Oqar suvga turli chiqindilarni tashlash mumkinmi?
3. Tozalik, ozodalik, sarishtalik, mas'uliyat kabi so'zlarni rasmda ko'rsatilgan holatga ishlatish mumkinmi?
4. Turli chiqindilar tashlangan suv hayot manbayi bo'la oladimi?






II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



Ijodiy faoliyat

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va unga rasmlarda tasvirlangan yaxshi va yomon odatlarni yozing!

Yaxshi odatlar	Yomon odatlar





25-26-MAVZU: SOG' TANDA SOG'LOM AQL

Sog'lig'ing o'z qo'lingda



Maktabimizga shifokorlar kelishdi. Bizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi.

Ayrim bolalarga maxsus shifokor maslahatini olishga tavsiya qilishdi. Ba'zilarga kamqonlik tashxisini qo'yishdi.



Kamqonlik:

- a) xotiraning pasayishi;
- b) boshqa kasalliklarga moyillikning kuchayishi;
- c) nimjonlik va tez charchab qolish.



II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



Kamqonlikning oldini olish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:



1. Kun tartibiga rioya qilish.






2. To'g'ri ovqatlanish, poliz mahsulotlari, go'sht, ko'katlarni muntazam iste'mol qilish.



3. Ovqatdan avval suv ichish; taomlanishni meva yoki ko'katlar iste'mol qilishdan boshlash.



4. Fast food taomlarini muntazam iste'mol qilishdan saqlanish.



TARBIYA, 1-SINF



1



2



3



4



5



6



7



8



9



Ijodiy faoliyat



Jadvalni to'ldiring!

Nonushta	
Tushlik	
Kechki ovqat	

II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



27-MAVZU: DASTURXON ATROFIDA

Onajonim kechki ovqat uchun dasturxon yozdilar. Men yordamga kirishdim. Lekin qoshiq, pichoq, sanchqilarni qanday qo'yishni o'ylab qoldim...

Siz menGA aytib bera olasizmi, ularni dasturxonda qanday joylashtirish kerak?





28-MAVZU: DASTURXON ATROFIDA O'TIRISH ODOBLARI



1. Kattalardan avval taomga qo'l uzatmang.
2. Stolga osilib o'tirmang.
3. Taomni shoshib va og'zingizni ochib chaynamang.
4. Boshqalarning idishiga qaramang.
5. Dasturxonadagi nonning hammasini ushatib tashlamang.
6. Og'zingizdagi ovqatni yutmasdan gapirmang.
7. Oshxona jihozlarini idislarga urib ovoz chiqarmang.
8. Ovqatlanish vaqtida sochiqdan foydalanib turing.
9. Ovqatlanayotganda telefondan foydalanmang.
10. Agar oldinroq turmoqchi bo'lsangiz kattalardan ruxsat so'rang.
11. Ovqat uchun rahmat aytishni unutmang.
12. O'z-o'zingizga xizmat qilishni odat qiling.
13. Ovoz chiqarib ovqat yemang.





II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



29-30-MAVZU: JAMOAT JOYLARIDA O'ZINI TUTISH

Olamiz bilan xiyobonda aylanib yurgan edik.
Bir bola qo'lidagi muzqaymoqning qog'ozini
yerga tashlab ketdi. Bu holni ko'rgan kuzatuv-
chi bolaning ota-onasiga nimadir dedi. Ota qizarib
ketdi. Shosha-pisha yerda yotgan qog'ozni olib
o'g'liga uzatdi. Bola yerga qaraganicha chiqindi
tashlaydigan quti tomon ketdi.

- Kuzatuvchi nima dedi, siz eshitdingizmi? – deb so'radim dadajonimdan.
- O'zing o'ylab ko'r-chi, – menga savol nazari
bilan qaradilar dadam.

Kuzatuvchi nima degan bo'lishi mumkin?

Samarqandning Registon maydoni juda ajo-yib ekan. Xuddi ertaklar olamiga tushib qolgan-dek bo'ldim.

Shahar aylanib, do'konlarga kirdik.

– Marhamat qilib, menga esdalik sovg'a uchun suvenir ko'rsatsangiz, – iltimos qildilar sotuvchi-dan dadajonim.

– Mana, marhamat, – Registon maydonining chiroyli maketini uzatdi sotuvchi.

– Katta rahmat, biz buni olamiz, – deya pulini to'ladilar dadajonim.



Sovg'amizni chiroyli qutichaga o'rab berar ekan:

– Mehmonmisizlar? – deb so'radi sotuvchi.

– Ha, mehmonmiz, ertaga Buxoroga ketamiz.

Sotuvchi bilan iliq xayrlashib ko'chaga chiqdik. Dadajonim bizlarga sotuvchining odobi haqida to'lqinlanib gapirdilar.

Mehmonxonaga qaytdik. Dadajonim hamyonlarini qayerdadir qoldirganliklari ma'lum bo'ldi.

Nima deb o'ylaysizlar, hamyon qayerda qolgan bo'lishi mumkin?



II bob. Go'zal xulq – inson ko'rki



Hammamizning kayfiyatimiz buzildi. Hamyonda hujjatlar va biroz pul bor edi.

Kechki ovqatga o'tirdik. Shu payt dadamni kimdir so'rab keldi. Sotuvchini darhol tanidik.

– Sizlarni izlab barcha mehmonxonalarga bordim, hamyoningizni unutibsiz, mehmon, – dedi sotuvchi.

– Meni qidirib yo'lkira qilib kelgansiz, mana bu pulni oling, – xijolat bo'ldilar dadam.

– Yo'q, rahmat. Siz mehmonsiz. Ovora bo'lib meni qidirishingizni istamadim. Shuning uchun o'zim qidirib keldim.

Sotuvchining odobi haqida qanday fikr dasiz?
Mehmonga qanday munosabatda bo'lish kerak?

MUNDARIJA

Darslik haqida.....	3
Yo'l ko'rsatkichlari	4
1-mavzu: Vatan ishonchi	5
2-mavzu: Salomlashish odobi.....	6
3-mavzu: Mening orzum	10
4-5-mavzu: Bilim olish sirlari.....	12
6-mavzu: Maktabim – gulshanim.....	16
7-8-mavzu: Mening sevimli ertak qahramonlarim.....	22
9-10-mavzu: Har narsaning o'z o'chovi bor	25
11-12-mavzu: Mening mahallamda yashash yaxshi	30
13-mavzu: Notanish kishi kim?.....	34
14-15-mavzu: Xavfli vaziyatlarda harakat qilish	37
"Zukko o'quvchi" o'yini.....	39
16-mavzu: Sehrli so'zlar	42
17-mavzu: Qalb oynasi.....	44
18-19-mavzu: Telefonidan foydalanish qoidalari.....	45
20-21-mavzu: Tashqi ko'rinish odobi	48
22-23-mavzu: Yaxshi va yomon odatlar.....	51
24-mavzu: Soy bo'yida	53
25-26-mavzu: Sog' tanda sog'gom aql.....	55
27-mavzu: Dasturxon atrofida	58
28-mavzu: Dasturxon atrofida o'tirish odoblari	59
29-30-mavzu: Jamoat joylarida o'zini tutish.....	60



O'quv nashri

**Ismatova Nargiza, Ro'ziyeva Dilnoz, Islomov Zohidjon,
Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir,
Mahmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Madaliyeva Sevara,
Shermuhamedova Saodat, Akkulova Saodat, Mo'minova Laylo,
Xolmuhamedova Nilufar**

TARBIYA

1-sinf o'quvchilari uchun darslik

Rassom I. Xolxo'jayev
Muharrir J. Yaxshiboyev
Badiiy muharrir I. Yo'ldoshev
Texnik muharrir T. Xaritonova
Musahhihlar: M. Ibragimova, D. To'ychiyeva
Dizayner va sahifalovchi K. Najmiddinov

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 11.04.2016.
2020-yil 3 avgustda bosishga ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{8}$.
Kegli 18 shponli. Arial garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
7,44 shartli bosma taboq. 8,5 nashr tabog'i.
Adadi 540674 nusxa. ____ raqamli buyurtma.

Dizayn konseptsiyasi va uslubi bosh pudratchi Kolorpak MCHJ
tomonidan ishlandi.



COLORPACK

СУМГАЙУТ | УЗБЕКИСТАН

G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

www.gglit.uz info@gglit.uz